
XORIJIY TILLARNI YANADA RIVOJLANTIRISHGA BAG'ISHLANDI

Oltiariq tumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ijrosi yuzasidan tahliliy yig'ilish bo'lib o'tdi.



Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi Farg'ona viloyati hududiy vakilligi rahbari A.Rahmatova, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibi mudiri O'.Otaboyev, tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri M.Teshaboyev hamda tumandagi 47 ta umumta'lim maktab direktorlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda agentlik tomonidan xalqaro sertifikatlardan TKT sertifikatiga ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilayotgani, tumandagi xorijiy tillar fan o'qituvchilarini mazkur jarayonga jalb etish hamda yozgi ta'til davomida mavjud fan o'qituvchilarining 50foizini milliy va xalqaro sertifikatlariga ega bo'lishiga erishish maqsad qilib olindi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-21 16:54:23